# V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI [1)]



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar- fevral oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 5 960 799,5 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

2023-yilning yanvar-fevral oylari bilan solishtirilganda, foyda hajmi 1 709 318,0 mln. so'm yoki 40,2 foizga oshdi.

**2024- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari**

mln. so'm

| | ***Foyda, zarar (+, -)*** | ***O'sish sur'ati, % da*** |
|---|---|---|
| **Jami** | **5 960 799,5** | **140,2** |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 586 480,8 | 185,5 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 5 398 070,4 | 137,2 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | -24 289,2 | - |
| Qurilish | 409,9 | 92,8 |
| Savdo | -3 823,9 | - |
| Tashish va saqlash | 881,4 | 45,8 |
| Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 624,2 | - |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 109,1 | 97,0 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 4,6 | 159,9 |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish | 3,9 | 4,3 m. |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4,4 | 2,1m. |
| Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot | 78,4 | - |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2 245,5 | 2,3 m. |

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga – 5 398 070,4 mln. so'mga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalariga –

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

586 480,8 mln. so‘mga, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish korxonalariga – 2 245,5 mln. so‘mga, , tashish va saqlash – 881,4 mln. so‘mga, suv bilan ta‘minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalariga– 624,2 mln. so‘mga qurilish korxonalariga – 409,9 mln. so‘mga, ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar korxonalariga – 109,1 mln. so‘mga, boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish korxonalariga – 3,9 mln. so‘mga, professional, ilmiy va texnik faoliyat korxonalariga – 4,6 mln. so‘mga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish korxonalariga – 4,4 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga minus – 24 289,2 mln. so‘m, savdo korxonalariga minus – 3 823,9 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan foydaning oshishi O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (5 908 276,7 mln. so‘mga) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

**2024-yil yanvar- fevral oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

| | *Foyda, zarar (+, -) mln. so‘m* | *O‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **5 960 799,5** | **140,2** |
| Navoiy sh. | 5 895 694,3 | 140,0 |
| Zarafshon sh. | -7 903,2 | - |
| G‘ozg‘on sh. | - | - |
| Karmana t. | 51 029,9 | - |
| Konimex t. | 401,7 | 83,5 |
| Qiziltepa t. | 2 336,5 | 184,0 |
| Navbahor t. | 6 584,6 | 116,3 |
| Nurota t. | 2 675,6 | 117,7 |
| Tomdi t. | 6 602,2 | 16,4 |
| Uchquduq t. | -2,4 | - |
| Xatirchi t. | 3 380,3 | 89,9 |

**2024- yil yanvar- fevral oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**
(2023- yil yanvar- fevralga nisbatan, % da)




Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shaharda 5 895 694,3 mln. so‘m, Karmana tumanida 51 029,9 mln. so‘m, Tomdi tumanida 6 602,2 mln. so‘m, Navbahor tumanida 6 584,6 mln. so‘m, Xatirchi tumanida 3 380,3 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2024- yilning yanvar- fevral oylarida 8 ta korxona 42 534,3 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi. Zararning asosiy qismi Davlat va ho‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2024- yil yanvar- fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar so‘mmasi* | |
|---|---|---|---|
| | | *mln. so‘m* | *jamiga nisbatan, % da* |
| **Jami** | **8** | **42 534,3** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 3 | 9 466,0 | 22,3 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni Kondisiyalash | 1 | 24 789,2 | 58,3 |
| savdo | 1 | 8 258,6 | 19,4 |
| Tashish va saqlash | 2 | 20,1 | 0,05 |
| Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot | 1 | 0,4 | 0,001 |

## 2024- yil yanvar- fevral oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

| | *Korxonalar soni* | *Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, % da* | *Zarar so‘mmasi, mln. so‘m* |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **8** | **100,0** | **42 534,3** |
| Navoiy shahar | 3 | 80,5 | 34 226,2 |
| Zarafshon shahar | 2 | 19,4 | 8 275,3 |
| Qiziltepa tuman | 1 | 0,1 | 29,0 |
| Karmana tumani | 1 | 0,001 | 0,4 |
| Uchquduq tumani | 1 | 0,01 | 3,4 |

## Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati[1)]




2024 – yil 1-mart holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 12 392 492,8 mln. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan – 132 346,2 mln. so‘m yoki jami qarzdorlikning 1,1 foizi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2023- yil 1- martga nisbatan solishtirganimizda 3,5 foizga kamaygan bo‘lsa, jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 2,5 m. ga oshgan.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 6 762 254,3 mln. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 54,6 %), Karmana tumani 5 294 994,8 mln. so‘m (42,7 %), Navbahor tumani 131 748,7 mln. so‘m (1,1 %), Xatirchi tumani 110 530,1 mln. so‘m (0,9 %), Konimex tumani 47 065,4 mln. so‘m (0,4 %) to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Tomdi tumani 15 012,5 mln. so‘m (0,1 %), Nurota tumani 7 712,5 mln. so‘m (0,1 foiz), Qiziltepa tumani 19 478,6 mln. so‘m (0,2 %), Zarafshon shahri 3 695,9 mln. so‘m (0,03 %) ga pastligini ko‘rish mumkin.

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

**2024- yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

| | Jami, mln.so'm | undan: | | | Muddati o'tgan qarzdor-likning ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|---|
| | | xaridor va buyurtma-chilar | etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar | ichki idoraviy | |
| **Jami** | **132 345,7** | **130 705,3** | **682,2** | **-** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 110 340,4 | 109 651,3 | 633,5 | - | 83,4 |
| Ko'chmas mulk bilan opyerasiyalar | 18 569,5 | 18 569,5 | - | - | 14,0 |
| Tashish va saqlash | 3 435,8 | 2 484,4 | 48,7 | - | 2,6 |

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2024- yil 1- mart holatiga jami debitor qarzdorligi 6 332 759,0 mln. so'm yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 51,1 foizini tashkil qildi.

Muddati o'tgan debitor qarzdorlikni 2023-yil 1- martga nisbatan solishtirganimizda 3,5 foizga kamaygan.

2024- yil 1- mart holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 9 836 347,2 mln. so'm, shundan muddati o'tgan – 1 081 971,6 mln. so'm yoki jami kreditor qarzdorlikning 11,0 foizni tashkil etdi.

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2024- yil 1- mart holatiga jami kreditor qarzdorligi 5 724 997,2 mln. so'm yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 58,2 foizni tashkil qildi, shu jumladan muddati o'tgan – 1 060 453,5 mln. so'm yoki mos ravishda 72,3 foizga kamaygan.

**2024- yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

| | *Jami, mln. so‘m* | *undan:* | | | | | *Muddati o‘tgan qarzdorlik-ning ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *etkazib beruvchilar va pudrat-chilarga* | *olingan avanslar* | *davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar* | *ichki idoraviy* | *mehnatga haq to‘lash* | |
| **Jami** | **1 081 971,6** | **1 079 812,3** | **2 159,3** | **-** | **-** | **-** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 1 078 586,1 | 1 076 426,8 | 2 159,3 | - | - | - | 99,7 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash | - | - | - | - | - | - | - |
| Tashish va saqlash | - | - | - | - | - | - | - |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar | 3 385,5 | 3 385,5 | - | - | - | - | 0,3 |
| Suv bilan ta‘minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish | - | - | - | - | - | - | - |

2024- yil 1- mart holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 2556145,6 mln. so‘mni tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumani 2 197 146,3 mln. so‘m (58,5 %) Navoiy shahar 423 415,5 mln. so‘m (93,7 %) Qiziltepa tumani – 9 227,9 mln. so‘m (52,6 %) Konimex tumani 5 669,2 mln. so‘m (88,0 %) ga to‘g‘ri keldi.

**Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar**

**Debitorlik qarzlar** – xaridorlar va buyurtmachilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, byudjet va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar, yig‘imlar va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo‘yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

**Kreditorlik qarzlar** – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz, sug‘urta bo‘yicha qarz, davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz, ta’sischilarga qarzlar, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlar va boshqa kreditorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.